

## **MUMTOZ MUSIQA TARAQQIYOTIDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR**

A. Sultonov

Farg`ona Davlat universiteti musiqiy ta`lim va madaniyat kafedrasi o`qituvchisi

### **TRANSFORMATIONAL PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF CLASSICAL MUSIC**

A. Sultanov

teacher of the Department of musical education and culture of Fergana State University

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada milliy umtoz musiqa madaniyatimizning tarxiy transformatsion taraqqiyot jarayonlari o`rganilgan

#### **Annotation**

This article examines the processes of historical transformational development of our national musical culture

**Kalit so`zlar.** Musiqiy idrok, tendensiya, transformatsiya, musiqiy ijodkorlik, cholg`u ijrochiligi, mahorat, innovatsion ta`lim, interfaol, o`zini-o`zi o`qitish, elektron dars,

**Key words.** Musical perception, tendency, transformation, musical creativity, Instrumental Performance, skill, innovation education, interactive, self-teaching, electronic lesson,

Bilamizki, Sharq musiqiy merosi o`zining tarixiy taraqqiyoti davomida Maqom, Dastgoh, Mug`om, Kyui, Raga kabi murakkab ijrochilik turkumlarini shakllantirish bilan og`zaki tarzda avloddan-avlodga o`tib keldi. XIII-XVII asrlarda Xuroson, Buxoro, Uyg`uriston va Ozarbayjon xalqlari musiqasida «Ushshoq», «Navo», «Busalik», «Rost», «Xusayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg»<sup>1</sup> kabi o`n ikki (davozdax) maqom nomlari mavjud bo`lgan.

Yana bir qimmatli tarixiy manba Mirzo Ulug`bek Tarag`ayning “Musiqa ilmi haqida risola” («Risola dar ilmi musiqa») kitobining “O`n ikki maqom zikrida” («Dar bayoni duvozdah maqom») bobida: “**Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog`iy, Xoja Sayfidin Abdulmo`min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so`zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo`lg`on:** «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Roho`», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy»<sup>2</sup> yaxshi ijro etganliklarini bildiradi. Yana ushbu risolada ulug` bobomiz Ulug`bekning o`zi tanbur va nog`orani juda

<sup>1</sup> Nazarov A. F. Kniga pesen al-Isfaxani v aspekte mejregionalnix muzikalno-transkulturnativnix processov. Dis. Kan. Is-ya, bib-ka NII Iskusstvoznanija. Inv N812, s . 37

<sup>2</sup> Б.Болтаев. “Самарқанд мусиқа маданияти – Мирзо Улубек даврида”/”Зарафшон” газетаси. 2020-йил 29-август, шанба, 95-96 (23.375-23.376)-сон. 5-6.

yaxshi ijro etganliklarini, «Usuliy otlig», «Shodiyona», «Tabriziy», «Bulujiy» «Axloqiy», «Usuli ravon» singari kuylarni ixtiro qilgan<sup>3</sup>ligini keltrib o'tadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda, shunday aytib o'tish mumkinki, tarixiy taraqqiyot davomida yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. O'z navbatida xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rmini topganligi ehtimoldan holi emas. Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh Xusayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Ulug'bek vafotidan so'ng san'atdagi rivojlanish davri Xirotg'a ko'chdi. Buning bevosita rahbarligida ulug' bobomiz Alisher Navoiy, podshoh va shoir Xusayn Boyqaro homiylik qildi. Navoiy butun Movarounnahr, Xuroson san'at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo'lib yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o'zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Buyuk musiqa ustozlari eng iste'dodli talabalarni o'z tarbiyasiga oldi. Yangi kuylar, qo'shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Ustozi va do'sti buyuk shoir Abduraxmon Jomiy ham bu borada qalam tebratib «Risolal musiqiy» asarini yozdi. Bu asarda o'zbek xalqining qadimiyligi o'n ikki maqomi haqida qimmatli ma'lumotlar berildi. Yana bir zamondosh olim Zaynobuddin Al Xusayniy «Qonuni ilmi va amali musiqiy» nomli musiqiy darslik yozib, uni Changiy Darvish Ali Navoiyga bag'ishladi. Nuritdin Marg'iloniyning «Maqsadul advor» («Musiqa ilmini maqsadi») risolasi ham maydonga keldi. Navoiy faqat san'atkornarning xomiysi bo'libgina qolmay, u musiqa olimi va bastakori ham bo'lgan. Zaxriddin Muhammad Bobur uning bir qator musiqa asarlari yaratganini, jumladan «Naqshi» (ashula)lari, «Peshrav» (musiqa)lari borligini «Boburnoma» asarida hikoya qiladi. O'zlarining tahalluslari ham «Navo» ga bog'langanliklari zamirida musiqaga yaqindan oshno bo'lganliklarini ko'rsatadi!. Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mug'anniy (sozanda) faslida mutrib va mug'anniyalar ijrolarini ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritadi. «Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuq changi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, musta'zod kabi xalq qo'shiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta e'tibor bergani namoyon bo'ladi. Bu asarda Mavlono Ali tengi yo'q sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo'ja Shahobiddin, Abdullomarvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini ko'rsatib o'tadi. Navoiy «Xolati Paxlavon Muhammad» asarini o'z davrining buyuk bastakori, o'n ikki maqomning takomillashuvida katta xissa qo'shgan

<sup>3</sup> Ўша манба.

Paxlovon Muhammadning musiqa ijodiga bag'ishladi. O'sha davr musiqa madaniyati haqida Zaxriddin Muhammad Bobur ham qimmatli ma'lumotlar bergan. Uning yozishicha ustodlar Qulmuhammad, Abdullo Marvoridiy, Xusayn Udiy, Darvishbek, Yusuf o'g'loqi ( qo'biz), G'ulom Shodi, Shayxi nayi, shayx quli (g'ijjak)lar Navoiyning yordami va g'amxo'rлиgi tufayli shuhrat topganlar. Zayniddin Vosifiy o'zining «Badoe'ul vaqe'» asarida Navoiy zamonasida xalq san'atini katta rivoj topgani to'g'risida yozib, Xasan Nayi, Ahmad G'ijjakiy, Ali Kuchak Tanburiy, Xasan Boloboniy, Mirzo Bayram, G'iyosiddin kabi sozanda va bastakorlarni nomlarini keltiradi. Zayniddin Vosifiyning ma'lumotlariga qaraganda Hirot Safaviylar tomonidan ishg'ol qilinganda besh yuzga yaqin san'at axli Mavarounnaxrga ko'chish qilganligi, bular orasida Qosim Ali qonuniy, ashulachi va sozanda ayol (tug'anniya) Chaqar Xonim, Said Ahmad G'ijjakiy, Muhibi Ali Boloboniy, Xasan Udi, Xusan Udi, Xusayn Kuchak nayi, Hofiz Marxonanda, raqqoslardan Maqsud Ali<sup>4</sup> kabilar borligi aytib o'tiladi. Mumtoz musiqamizning davrlar osha transformatsiyalanishi, sayqal topishi va tadrijiy rivojlanishida yuqorida sanab o'tilgan san'at fidoiylarining hizmatlari benihoyat katta bo'ldi. Har bir yetuk san'at ahli ushbu transformatsiyalashuvda o'z ijodi bilan bosqichma-bosqich hissa qo'shaverdi, rivojlantiraverdi.

Bir qator musiqiy asarlarning qadimdan yaratilib, shakllarga solinib, asrlar oshib sayqallanlanganligini tarixiy manbaalar asosida o'rganib chiqsak:

Alisher Navoiy «Xamsa»ning beshinchi dostoni «Saddi Iskandariy»da Iskandarning uylanish to'yida o'lan aytish va yor-yor kuylash bilan tomosha ko'rsatilganini ta'kidlaydi:

Mug'anniy tuzub chinga vaznida chang,  
Navo chekki, hay-hay o'lang, jon o'lang!  
Desang senki: jon qardoshim yor-yor!  
Men aytayki, munlug' boshim yor-yor!<sup>5</sup>

Keltirgan ushbu misoldan Alisher Navoiy hozirgi o'lanlar va yor-yorlar juda uzoq tarixga ega ekanligini isbotladi. Shu kabi xalq qo'shiqlari bilan bir vaqtida mumtoz maqom yo'llari ham teng tarzda rivoj topib borganki, u o'z navbatida mumtoz adabiyot borasida ham ulkan natijalarni yuzaga chiqargan.

XVII-asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san'ati yana turg'unlik kayfiyatini boshdan o'tkazadi. Bunga Mavarounnahrning uch xonlikka bo'linib ketilishi sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo'qon xonligidagi musiqiy san'at muxiti o'z holicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi. S.Saidiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo va yaqin Sharq davlatlari san'atshunos olimlari orasida ilk marotaba cholg'ular "Morfologiyasi" o'z konsepsiyasini topdi. Shuningdek, ilk marotaba Sohibqiron harbiy musiqiy cholg'ulari konsepsiysi, ilk marotaba Buxoro

<sup>4</sup> N. Kavkabiy. Ko'rsatilgan adabiyot. B. 48; Abdurahmon Jomiy. Traktat o muzike. T., AN UzSSR, 1960, s. 85

<sup>5</sup> О.Мадаев, Т.Собирова. Халқ оғзаки поэтик ижоди. «Шарқ», Т., 2001, 75-бет

amirligining 9-ta tartibli “Nog‘orachilar” va “orkestr” ijrolari majmuasi<sup>6</sup>, ilk marotaba Al-Forobiy va Ibn Sino iyqoot nazariyasi zamonaviylikda o‘z yechimini topgan<sup>7</sup> hamda Buxoro shashmaqomining 2400 yillik ildizini ro‘yobga chiqarish bilan birga o‘z sohasining yangi tizimli nazariy va amaliy ixtiolariga erishgan. An’anaviy musiqa tizimida yangi paydo bo‘lgan nav va uslublar oldingilarini inkor qilmaydi. Ma’lumki, XIX asrning boshlarida Shashmaqom Xorazmda ham joriy etila boshlangan. Mulla Bekjon Rahmon va Muhammad Yusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi”da mana bular qayd etiladi: – Muhammad Rahimxon I zamonida mashhur musiqashunos xivalik Niyozjonxo‘ja degan Buxoro o‘lkasiga shashmaqomni o‘rganib kelishi uchun shogirdi bilan birga yuboriladi. Ular Buxoroga borib, burundan ma’lum bo‘lgan Shashmaqom yo‘llarini tanbur bilan o‘rganib, Xivaga qaytgan ekan. Bu odam Xivaga kelgani bilan sozdagi iqtidor va mahorati Xorazm musiqashunoslarning nazari- diqqatlarini jalb qilgan. Bugun biz mazkur jarayon haqida bir muncha aniq taassurotlarga egamiz. Xorazm ustozlari Shashmaqomni ijodiy o‘zlashtirish bilan bir qatorda juda ko‘plab yangi nom, kuy va ashulalarni qo‘sghanlar. Jumladan, Shashmaqomda ishlatilmagan yirik qismlar kiritilgan. Xorazm maqomlarida usullar tizimi Buxoro Shashmaqomi bilan farq qiladi (boshqacharoq ishlangan). Nufurdam (Xorazm maqomlaridagi taronaning teskari usuli), Chor usul, Se usul<sup>8</sup>, Murabba, Musaddas, Musabba, Gulufar, Foxtiy zarb nomli usullar kiritilgan. Ufar usuli (Buxoro maqomlaridagi Ufarlarga nisbatan) Xorazmda ham boshqacha talqin qilinadi (nomi bir xil bo‘lsa ham). “Xorazm musiqiy tarixchasi”da yozilishicha,- « “Shul Niyozjon Xo‘jadan Mahsumjon qozi, Usto Muhammadjon sandiqchi deganlar Shashmaqom degan nag‘malarni tamom o‘rganadurlar. Mazkurlar o‘rgangan nag‘malarni havaskor shogirdlariga ta’lim qilmoqqa boshlab hiyligina tanburchi shogirdlar yetushtirdilar. Ang‘a Buxoro ajdodiy ramzi va Buxoro Amirimizning Shashmaqomig‘a etgulik hiylag‘a go‘l geladurlar. Saiyd Niyozjon Xo‘janing shogirdi Muhammadjon sandiqchidan Abdusattor Mahram o‘g‘li ta’lim oladur. Bu odam xalq va hukumat ichida sohib nufuz odiqqan bir kishi bo‘lg‘oni uchun, shashmaqom nag‘masi yetkan sayin hiylalara rivojlanmoqqa boshlag‘ondur”<sup>9</sup>. Yana “Men (Xorazmshoh) ang‘a Niyozxo‘ja ismli Shashmaqom o‘g‘risuni Buxoro o‘lkasig‘a shogirdlari ila amr etdim!, - alarg‘a ayshratini u o‘lkag‘a a’lo yashamoqqa mushkul etdim, zero bular mana tumnat etguya solg‘ach, ani buromaddin tark etib, avjg‘a va ani tarklab furovardg‘a, undan suporishsiz yakuna geldi”, -alar boshig‘a jallod peshvoh etib 20 darradan so‘ng, tongg‘a qadar so‘yladi va chaldilar giryai mug‘ona!, va men shashmaqomdin endi haqiqat huzuri ko‘rdim!!!, - qax-haha-ha”<sup>10</sup>. Demak, Feruzshoh sozandalarni saroydan tashqarida birovni to‘yi kutayotganini va ko‘zlarini yumib shashmaqomni eshitayotganida esa, sozandalar shohni yotgan va maqomni tushunmasa kerak

<sup>6</sup> 23 S.B.Saidiy, Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg‘ular, (O‘zbek va tojik musiqa an‘analari misolida), Toshkent/; 2008, SITI, (arxiv). 44-47 betlar

<sup>7</sup> Farmet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope G’A. Asurvey of Persian Art. –London, 1939, vo l.3.

<sup>8</sup> Бухоро Шашмақомида В.Успенский таърифида номи бор, куйи йўқ. (1926 yi Buxara). 2013. 1-4 b.b.

<sup>9</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода .Ўша асар. –Б.9.

<sup>10</sup> O’sha asar-48-57 betlar.

deb, o‘ylaganlar. Shunday qilib shohni aldab daromaddan bir va avjga esa bormasdan qaytgach, furovardning yakuniy qismiga kulminatsiya ishlatib yakunlaganlar. Sababi, tezroq saroydan chiqish edi. Zero, bu hiylalari qo‘l kelmadi. Chunki Feruzshoh yotmagan, shundayki ko‘zlarini yumib pinak solib turgan bo‘lgan. Tongda esa sozandalarga “Men sizara har doim bir katta kosa amriga tillo hadiya etardim, bu navslaring qachon tugaydi va men hammasini anglab turibman, ne uchun shoshqaloqlik darkor erdi, deb tushuntiradi. Yo men shashmaqomni bilmaymanmi?,!, Buxorog‘a borub sizlardin oldin o‘rgang‘an edim”, - deydi. Bundan keyin xato qilmastliklarini buyuradi va har tashlab o‘tganlarni o‘zi tanbur birla ko‘rsatgani amr etadi.” O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida bu haqda quyidagi ma’lumotlar berilgan: “Muxammad Rahimxon (1806-1825) davriga kelib Niyozjonxo‘ja va uning shogirdlari Muhammadjon qozi, Muhammadjon sandiqchi Abdusattor Mahram va uning shogirdi Xudoybergan Kosib va boshqalar tanbur maqomi rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar”<sup>11</sup>

Muhammad Rahimxon Feruz sozandalikni kasb etmagan. Lekin soz ilmiga o‘ta qiziqqan. Mo‘tabar urf-odatlar yo‘lida kuylar ijod etib, Xorazm maqomlariga kiritishga jur’at qilgan. Bu asarlar hanuzgacha mumtoz maqomlarning tarkibiy qismlari sifatida saqlanib kelmoqda. “Xorazm musiqiy tarixchasi”da “Muhammad Rahimxon soniyning Shashmaqomg‘a bog‘lag‘an nag‘malari ushbulardur”, deb Feruzzxon bastalagan quyidagi kuylarni ko‘rsatadilar: 1.Rost maqomig‘a: “Muxammasi jadidi Feruz”, ”Musaddasi Jadidi Feruz”. 2.Navo maqomig‘a: “Saqili Feruzshohiy”, “Chor usuli Feruz”. 3.Dugoh maqomig‘a: “To‘rtinchi Peshravi Feruz”, “Saqili Feruzshohiy”. 4.Segoh maqomig‘a: “Saqili Feruz sho‘iy”, “Se usuli Feruzshohiy”, “Chor usuli Feruz”. 5.Buzruk maqomig‘a: “Muxammasi Feruz”. 6.Iraq maqomig‘a: “Birinji Muxammasi Feruzshohiy”, “Ikkinji Muxammasi Feruzshohiy”. 7.Panjgoh maqomig‘a: “Saqili Feruzshohiy”<sup>12</sup>. Birgina mana shu dalilning o‘zi Feruzning katta musiqashunoslik va bastakorlik salohiyatidan darak beradi.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarida Niyozjon Xo‘janing ismi Sayid Niyozjon tarzida uchraydi. Niyozjonxo‘ja u Buxoro Shashmaqomi asosida Xorazm maqomlarini, kuy-qo‘sishlarini qayta ishlab, Xorazmning o‘ziga xos milliy-mahalliy maqom tizimini ishlab chiqdi.

Birinchidan, Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, xorazmlik sozanda va bastakor Niyozjon Xo‘ja XIX asr boshlarida Buxoroga borib «Shashmaqom»ni o‘rganib, Xorazmda uni targ‘ib qilgani, Xorazm maqomlari «Shashmaqom»ning o‘zgynasi ekanligi aytib o‘tiladi.

Ikkinchi bir manbalarda Xorazm maqomlarining ayrim qismlaridagi parchalar tuzilish jihatidan va xarakter jihatidan bir-biridan farq qilinishi aytildi. Qanday bo‘lmisin, Xorazm maqomlari Muhammad Rahimxon Soniy - Feruz davrida mashhur shoir va musiqashunos

<sup>11</sup> Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 9 жилд .Тошкент ,2005. - Б. 475

<sup>12</sup> Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Ўша асар.-Б. 35.

Komil Xorazmiy va o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo hamda shogirdlari tomonidan Xorazm olti yarim maqomi «Tanbur chizig‘i»ga notalashtirilganligi haqida aniq ma’lumotlar mavjud. Tanbur chizg‘ilarini o‘rganish, uni tushunishga urinishlar bu nodir manba fanga ma’lum bo‘lganidan beri davom etmoqda. Bugungi kun maqom san’atining fidoyi bilimdoni, ustozlar ilmining nazariy-amaliy qirralarini chuqur o‘zlashtirgan musiqashunos Rustam Boltayev “Tanbur chizg‘ilari”ga 80 yillardayoq qiziqib qoladi. “Tanbur chizg‘ilari” ustida olib borgan dastlabki ilmiy va amaliy tadqiqotlari samara bermaydi.

Chunki u quyidagi muammolarga duch keladi:

1. —Tanbur chizg‘ilarida zamonaviy nota yo‘liga qaraganda bir necha marta ko‘p (roppa-rosa 18 ta) chiziq mavjud;
2. U arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek tilida bitilgan va u o‘ngdan chapga o‘qiladi;
3. Yozuvda aniq bir o‘lchov haqida ma’lumot yo‘q;
4. Chiziqlarning osti-ustiga nuqtalar qo‘yilgan ammo, ba’zida nuqtalar bitta, ba’zida o‘ntaga yaqinni tashkil qilishi mumkin. Mana shu kabi savollar sabab ushbu nota yozuvi ustida olib borilgan tadqiqotlar ko‘pincha be samar chiqqan. Asl egasini topguncha kutubxonalarining oltin javonida saqlanaverган.

“Xorazm tanbur chizig‘i”ning sir-sinoatini anglashga bo‘lgan urinishlar deyarli hamma vaqt besamar ketgan. Hatto 1956-yilda nashrdan chiqqan O‘zbek xalq muzikasi to‘plamining VI jildida Xorazm maqomlariga o‘sha davr musiqashunosi Ilyos Akbarov ilova qilib Rost maqomini besh chiziqli nota yo‘liga o‘tkazadi. Ammo, bu nota yo‘lidagi maqomlardan kuy chiqara olmaysiz. Chunki —Tanbur chizg‘ilarini o‘qiy olishga yordam beradigan maxsus kalitni faqat maqomni yaxshi anglash yoki uni ijro qilish bilangina qo‘lga kiritib bo‘lmaydi. Balki shuning uchun ham uni maqom ustalari ko‘p hollarda qog‘ozga tushira olmagan bo‘lishi mumkin.

XXI asr bo‘sag‘asida maqomlarning yangi varianti fanga ma’lum bo‘ladi. Xozarasplik mehnat faxriysi Hofiz Ollanazarov uyida qadimiyo qo‘lyozma saqlanayotgani haqida o‘sha davr Yozuvchilar uyushmasi raisi Omon Matchonga xabar beradi. Omon Matchon bilan uchrashuvda Hofiz Ollanazarov: —Omon aka uyda mana shunday eskicha kitob bor, shu kitob bekorga yo‘q bo‘lib ketmasin, buni o‘rganib ko‘ringlar – degan ekan. Omon Matchon kitobga qarasa arab imlosidagi o‘zbekcha g‘azallar yozilgan. Ustoz shoир g‘azallarni o‘qib ma’nosiga tushuna boshlaydi, ammo, kitobdagi chiziqlar va ularni har yerida nuqtalar uni biroz hayratga soladi. So‘ng bu kitobni tegishli tashkilotlarga taqdim qiladi.

Hofiz Ollanazarov o‘zi haqida, kitob qanday qilib uning qo‘liga tushib qolgani to‘g‘risida gapirib beradi: -Men o‘zim Hazoraspdanman. Bizni Iskandar Maxsum degan bobomiz bor edi, kitob shunga tegishli bo‘lgan. Xiva xonligida hofizlik qilgan... Keyinroq aniq bo‘lishicha bu kitob Iskandar Maxsum uchun Komil Devoniy tomonidan maxsus ko‘chirib berilgan. Bu nusxada beshta maqom mavjud. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, u Xorazm shashmaqomining faqatgina ashula qismini o‘z ichiga oladi.

Bular: Rost, Navo, Segoh, Dugoh, Buzruk maqomlaridan iborat.

Olti yarim	Ashula soni
maqom nomlari	(Komil Devoniy nusxasi)
Rost	9
Navo	17
Segox	15
Dugoh	17
Buzruk	15
Iraq	-
Panjgoh	-

Ushbu qo‘lyozmaning ahamiyatli jihatni shundan iboratki, unda ilgari nomi ma’lum ammo daliliy ashyosi hech bir yerda uchramagan Dutor maqomlarining ham mavjudligi edi. Kitobda Dutor maqomlarining 27 ta ashulasi so‘z matni bilan birga berilgan. Komil Devoniyning ushbu kitobida jami 100 ta ashula mavjud.

Hozirgi kunda — Tanbur chizg‘ilarining turli xattotlar tomonidan ko‘chirilgan 20 ga yaqin nusxasi mavjud. Ma’lumki ushbu noyob nota yozuvi Komil Xorazmiyning kashfiyoti sanaladi. Ammo, fanga ma’lum bo‘lgan qo‘lyozmalarning xech birida uning nomi qayd qilinmagan. Eski musiqashunoslarda — Komil Xorazmiy bu nota yozuvini kashf qilib, faqat Rost maqomini boshlang‘ich qoralamasini ishlagan – degan faraz mavjud.

“Xorazm musiqiy tarixchasi”da asosiy ishni uning o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo bajargani haqida bir qator ma’lumotlar ko‘rish mumkin.

Xonning o‘zi ham etuk shoir, sozanda, bastakor, hofiz bo‘lganligi, qadimiylar maqom kuylari asosida «Navo», «Segoh», «Dugoh» larga bog‘lab kuylar yaratgani, u yaratgan Feruz I, II, III ijrolari xalq ichida mashhur bo‘lib ketganligi aytib o‘tiladi. Hatto Xorazm maqomlarini xalqning daxlsiz mulki deb e‘lon qilib, maqomlarni kamsitgan yoki buzib ijro etganlarni qattiq jazolash haqida farmoni oliy chiqqarganligi aniq manbalar asosida ko‘rsatiladi.

Xorazm maqomlarini notalashtirishga qator musiqashunos olimlar qo‘l urishgan. Mulla Bekjon bilan mashhur musiqashunos Matyusuf Devon 1925 yilda Moskvada chop etilgan «Xorazm musiqiy tarixchasi» asarida Xorazm maqomlarining tuzilishi, shakllari, ijro yo‘llari haqida ma’lumotlar berishgan va ayrim nota ko‘rinishlari bilan to‘ldirishgan. Xorazm maqomlari bilan taniqli musiqashunos E.E. Romanovskaya ham shug‘ullangan bo‘lib, shunday yozadi:

«So‘nggi xonlar davrida (XIX asr) Xivada ijro etib keligan maqomlar ham 1934 yilda O‘zbekiston san’atshunoslik ilmiy tekshirish instituti ekspeditsiyasi yozib olgan maqomlar aslida Buxoro maqomlaridir. Bu maqomlarni bundan taxminan 130 yil burun Niyozxo‘ja degan sozanda, mashshoq Buxorodan Xivaga olib kelgan».

Xorazm maqomlari quyidagi tartibda keladi: Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iraq, Panjgoh.

Xorazm maqomlarining bevosita tuzilishi va ijroviy xususiyatlariga kelsak, avvalda Shashmaqom yo'llarining aytim bo'limidagi sho'balar saqlab qolingan. Lekin keyinchalik Xorazm ijrochilik matabining tez rivojlanishi natijasida ashula yo'llarida juda ko'p transformatsion o'zgaruvchanlikni kuzatamiz.

Ba'zi sho'balarining nomlanishi va ijrolarida ham farqlar uchraydi. Masalan, tarona qismlari «Rost» maqomida, «Suvora», «Naqsh», «Faryod»; «Buzruk»da esa «Sayri gulshan», «Navo»da - «Suvora», «Faryod», «Naqsh»; «Dugoh»da - «Suvora»; «Segoh»da - «Naqsh» va «Muqaddima» deb nomlanadi. Aytim bo'limlarining bosh sho'basi bo'lgan Sarahborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan - Maqomi Rost, Maqomi Buzruk, Maqomi Navo, Maqomi Segoh, Maqomi Dugoh deb nomlanadi. Shunday holat - chertim bo'limlarida ham kuzatiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mumtoz musiqamizning tarixiy taraqqiyoti davomida sayqal topib yangi jilolar bilan jilolanib takomillashish transformatsiyalanish jarayonlari orqali shakllanganligini ko`rish mumkin. Shashmaqom Xorazm ijrochilik maktabi chertim yo'llari, usullari takomillashtirilib, bastakorlar tomonidan qo'shimcha namunalar kiritildi. Xorazm maqomlari ijrochilik nuqtai-nazaridan o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Asrlar davomida ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan Xorazm maqomlari davrlar o'tgan sari o'zining serjilo, serqirra ko'rinishlari bilan namoyon bo'ldi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Nazarov A. F. Kniga pesen al-Isfaxani v aspekte mejregionalnix muzikalno-transkulturnativnix processov. Dis. Kan. Is-ya, bib-ka NII Iskusstvoznaniya. Inv N812, s . 37
- 2.Б.Болтаев. “Самарқанд мусиқа маданияти – Мирзо Улубек даврида”/”Зарафшон”газетаси. 2020-yil 29-avgust, shanba, 95-96 (23.375-23.376)-son. 5-б.
- 3.N. Kavkabiy. Ko`rsatilgan adabiyot. B. 48; Abdurahmon Jomiy. Traktat o muzike. T., AN UzSSR, 1960, s. 85
- 4.О.Мадаев, Т.Собирова. Халқ оғзаки поэтик ижоди. «Шарқ», Т., 2001, 75-бет
- 5.B.Saidiy, Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular, (O'zbek va tojik musiqa an'analari misolida), Toshkent/; 2008, SITI, (arxiv). 44-47 betlar
- 6.Farmet H.G. An outline of History of music and musical theory. –in Pope G'A. Asurvey of Persian Art. –London, 1939, vo 1.3.
- 7.Бухоро Шашмақомида В.Успенский таърифида номи бор, куйи йўқ. (1926 yi Buxara). 2013. 1-4 b.b.
- Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода .Ўша асар. –Б.9. O'sha asar-48-57 betlar.
- 8.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9 жилд .Тошкент ,2005. - Б. 475
- 9.Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Ўша асар.–Б. 35.

- 10.Normuhamatovich, S. A. (2022). O'QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA ESHITISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1(B2), 259-263.
- 11.Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 314-323.
- 12.Shokirov, T. N. (2022). MILLIY MUSIQA MADANIYATI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (folklor, dostonchilik, maqom misolida). Science and innovation, 1(C3), 31-38.
- 13.Shakirov, T. N. (2022). SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 1-10.
- 14.Shokirov, T. N. (2022). ABU NASR FOROBIYNING MUSIQA ILMIGA QO'ShGAN HISSASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 353-359.
- 15.Kirgizov, I., Kirgizov, I., Najmetdinova, M., & Atabayeva, S. (2022, February). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. In Archive of Conferences (pp. 57-60).
- 16.Kirgizov, I., Imyaminovich, K. I., Nurmuhammedjanov, A., Sotvoldievich, S. B., Mamasodikovna, N. M., & Juraevna, A. S. (2021). The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2410-2413.
- 17..Dildora, X. (2021). Appeal as a basis of communication culture. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 812-815.
18. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. Scientific progress, 2(2), 1313-1315.
- 19.Dilorom, N., & Tohirovna, A. Z. (2022). BRAYL NOTA TIZIMINING MUSIQA TA'LIMIDAGI ILK QADAMLARI. Science and innovation, 1(C2), 36-38.
- 20.Namozova, D., & Astanova, Z. T. (2022). BRAYL NOTA TIZIMINING MUSIQA TA'LIMIDAGI ILK QADAMLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 260-264.
- 21.Namozova, D. (2022). BO 'LAJAK MUSIQA O 'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O 'QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. Science and innovation, 1(B6), 942-950.
- 22.Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 314-323.

23. Султонов, А., & Абдисатторов, А. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 478-483.
24. Normuhammatovich, S. A. (2022). O'QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA ESHITISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1(B2), 259-263.
25. Djalalova, N. X. (2022). FORTEPIANODA IJRO ETISH YOSHLARNI MUSIQIY TAFAKKURINI FAOLLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 394-399.
26. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. Science and innovation, 1(B8), 478-481.
27. Djalolova, N. (2022). BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING AMALIY DARSLARGA TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA KREATIVLIK JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 534-539.
28. Ataboeva, S., Kholikova, G., Jalalova, N., & Shoxista, U. (2021). STYLISTIC PROBLEMS OF COMPOSER S. RAKHMANINOV IN PIANO CONCERTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(05), 104-108.
29. Шокиров, Т. Н. (2022). ВОРИСИЙЛИКМИЛЛИЙ МАДАНИЯТНИНГ ТАЯНЧИ. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 581-583.
30. Шокиров, Т. Н. (2022). ВОРИСИЙЛИКМИЛЛИЙ МАДАНИЯТНИНГ ТАЯНЧИ. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 581-583.
31. Шокиров, Т. Н. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 353-359.
32. Nurmamatovich, S. T. (2021). Theoretical of national music culture fundamentals.
33. Ergashev, A., Ataboyeva, S., Djalalova, N., & Usmonova, S. (2021). THE ROLE OF COMPOSERY IN THE ART OF NATIONAL SINGING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 863-867.
34. Yelena, V., Nigora, D., & Margubahon, V. (2022). THE ROLE OF FOLK ART IN RAISING THE MORALE OF YOUNG PEOPLE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 699-702.
35. Djalalova, N. (2022). FUNDAMENTALS OF MUSICAL AND PEDAGOGICAL SKILLS. Science and Innovation, 1(8), 478-481.
36. Djalalova, N. X. (2022). FORTEPIANODA IJRO ETISH YOSHLARNI MUSIQIY TAFAKKURINI FAOLLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 394-399.

37. Djalolova, N. (2022). BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING AMALIY DARSLARGA TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA KREATIVLIK JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 534-539.
38. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. Scientific progress, 2(2), 1313-1315.
39. Namozova, Dilorom Tursunovna (2022). RENESSANS-BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KOMPETATSION TAKOMILI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 491-496.
40. D. Namozova (2022). BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O'QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. Science and innovation, 1 (B6), 942-950. doi: 10.5281/zenodo.7195688
41. Namozova, Dilorom, & Astanova, Zumradxon Tohirovna (2022). BRAYL NOTA TIZIMINING MUSIQA TA'LIMIDAGI ILK QADAMLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 260-264.
42. Normuhammamatovich, S. A. (2022). O'QUVCHILARDA MILLIY MUSIQA ESHITISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1(B2), 259-263.
43. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING SAMARADORLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 314-323.
44. Султонов, А., & Абдисатторов, А. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 478-483.
45. D. Namozova, Z. Astanova, & M. Egamberdiyev (2023). APPROACH TO THE USE OF THE LIVES AND WORKS OF BLIND MENTOR ARTISTS IN EDUCATING YOUNG PERFORMERS (ON THE EXAMPLE OF RASULQORI MAMADALIYEV). Science and innovation, 2 (B4), 149-151. doi: 10.5281/zenodo.7818536
46. Namozova, Dilorom Tursunovna, & Astanova, Zumradxon Toxirovna (2022). KO'ZI OJIZ YOSHLARNING MUSIQIY SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 436-441.
47. ЮЛДАШЕВА, М. Э., НАМАЗОВА, Д. Т., & УСМАНОВА, Д. Х. (2014). ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОФЕССИОНАЛИЗМ КАК ОСНОВНОЙ СТИЛЬ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ. In Будущее науки-2014 (pp. 136-138).

48. Аскарова, М., Намозова, Д., Мадаминов, Н., & Алихонова, Д. (2020). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 49(2), 402-407.
- Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(7), 81-86.
- 50.GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 124-126.
- 51.кизи Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(1), 133-139.
- 52.Авазовна, Г. В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурно-семантическому признаку. Преподавание языка и литературы, 1(8), 74-77.
- 53.ugli Abdullaev, S. S. (2021). SOCIAL INVOLVEMENT IN STUDENTS RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF VIRTUES.
54. Abdullaev, S. A. (2022). DISTRIBUTION OF THE NUMBER OF FAULTS AND TIME OF RESTORATION OF ELEMENTS OF SEWER NETWORKS. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 512-519.
- 55.ugli Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp. 168-170).
56. Nurkholis, A., Imas, S. S., Annisa, A., & Sobir, S. (2021). Spatial decision tree model for garlic land suitability evaluation. IAES International Journal of Artificial Intelligence, 10(3), 666.
57. Tursunova, D. (2022). PRIORITY PRINCIPLES AND PJTIMO-PEDAGOGICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY IN FEMALE STUDENTS. Science and Innovation, 1(3), 523-529.
58. Tursunova, D. T. L. Q. (2023). TALABA XOTIN-QIZLARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 33-38.